

YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O`ZGARISHLAR

*Ma`murova Yorqinoy Qurvanali qizi
TDTrU yurisprudensiya
(xalqaro transport huquqi)yo `nalishi
2-bosqich talabasi
yorqinoymamurova44@gmail.com*

Annotatsiya: ushbu maqolada O`zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga kiritilgan davlat boshqaruvidagi o`zgarishlar va uning ahamiyati haqida so`z yuritilgan. Mazkur yangilanishlar davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirishga qaratilganligi xusida yoritiladi. Chunki davlat boshqaruv tizimidagi o`zgarishlar boshqa sohalardagi islohotlarning ham muvaffaqiyati garovidir. Shuningdek maqolada davlat boshqaruvidan tashqari, mahaliy davlat hokimiyatidagi o`zgarishlarga ham to`xtalib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Prezident vakolati, senatorlar, deputatlar, Qonunchilik palatasi, o`zini o`zi tarqatib yuborish vakolati, parlament, mahalliy kengashlar, budget, korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish organlari.

Xalqimiz muallifligidagi yangi Konstitutsiyada davlat boshqaruvi tizimidagi o`zgarishlar yaqqol ko`zga tashalanadi. Jumladan, Prezident vakolatining uzaytirilganligi, senatorlar sonining qisqartirilganligi, senatning vakolatlari oshganligi, qonunchilik palatasining qo`shimcha vakolatlari va boshqalar. Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Prezidentning “davlat boshlig‘i” maqomi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq prezident bo‘lishi mumkin emasligi, prezidentning qasamyodi matni va prezidentga taalluqli boshqa aksariyat normalar o`zgarishsiz qoldirildi. Ma’lumot uchun, prezidentning vakolat muddati 2003 yilda ham 5 yildan 7 yilga uzaytirilgan, 2011 yilda esa qaytib 7 yildan 5 yilga tushirilgan edi. Bosh vazir nomzodini endi prezident taqdim etadi. Prezident bosh vazir nomzodini taqdim etishdan oldin parlamentga kirgan barcha partiyalarning fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o’tkazishi belgilandi. Qonunchilik palatasi prezident taqdim etgan nomzodni ko‘rib chiqadi, agar deputatlarning yarmidan ko‘pi ma’qullasa, bosh vazir lavozimga tasdiqlanadi. Agar deputatlar nomzodni uch marta rad etsa, prezident bosh vazirni tayinlab, Qonunchilik palatasini tarqatib yuborishga haqli. Senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushiriladi. 14 ta hududdan 6 nafardan emas, 4 nafardan senator saylanadi, prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqaradi. Bu o`zgarish 2024 yilda bo‘ladigan parlament saylovi vaqtida kuchga kiradi. Qonunchilik palatasi deputatlari sonini (150 nafar) oshirmsaslikka, o`zgarishsiz

qoldirishga qaror qilindi. Senat, shuningdek, eng yuqori rangdagi sud mansabdorlarini saylaydi, bosh prokuror va Hisob palatasi raisligiga nomzodlarni ko‘rib chiqib ma’qullaydi, DXX raisligiga nomzod bo‘yicha prezident bilan maslahatlashuv o‘tkazadi, Markaziy bank raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, xorijdagi asosiy diplomatlarni tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi (bularning barchasi prezident taqdimiga binoan amalga oshiriladi). Bundan tashqari, Senat mahalliy kengashlarning qonunga zid qarorlarini bekor qilish vakolatiga ega bo‘ldi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq bitta lavozimni egallashi mumkin emasligi haqidagi qoida, prezidentdan tashqari, Senat raisi, Qonunchilik palatasi spikeri, Oliy sud raisi va o‘rinbosari, Sudyalar oliy kengashining raisi va o‘rinbosari, Markaziy saylov komissiyasi raisi, bosh prokuror, hokimlar va kengashlar raislariga nisbatan ham tatbiq etiladigan bo‘ldi. Mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratildi. Bu boradagi hozirgi tartib hokimiyatning bo‘linish va hokimiyat bo‘g‘inlarining o‘zaro tiyib turish prinsipiga zid. Bosh qomusning yangi tahririga asosan, bunga barham berilib, mahalliy kengashlar saylanadigan vakillik organlari, hokimliklar esa ijro organlari deb belgilandi. Bir so‘z bilan aytganda, Yangi O‘zbekistonda yangi jamiyat yaratish va uning istiqboli uchun ko`pdan-ko`p o‘zgarish va qo`shimchalar qilinmoqda.

Xulosa: yangilangan Konstitutsiyadagi barcha qo`shimcha va o`zgartirishlar xalqimiz, ularning huquq va erkinliklari hamda Yangi O‘zbekistonda yangi fuqarolik jamiyati tuzish va davlatimizni rivojlantirish uchun qilingan. Va albatta, bu Konstitutsiya adolat uchun, inson huquqlarini himoya qilish, davlatning porloq kelajagi uchun xizmat qiladi. Menim taklifim shuki, bundan keyin chiqarilayotgan qonunlar aniq va xalqimiz oson tushunadigan qilib yaratilishi kerak. Shunda oddiy fuqaro ham har bir qonunni tushuna oladi va unga nisbatan o`z fikrini bildiradi.

REFERENCES

1. Yangi O‘zbekistonda yangi tahrirdagi Konstitutsiya – <https://iiau.uz/oz/news/2092>
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudining qarori: “O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qonunchilik palatasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish haqida”gi qarorining (ilovasi bilan) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to’g’risidagi ish yuzasidan” – <https://lex.uz/ru/docs/-6405731>
3. Yangi o‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasi! <http://marifatziyo.uz/articles/constitution16>